

# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 5 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 5

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 5



# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№5 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2024-5>

**Бош муҳаррир:**  
**Тўхтасинов Илҳом**  
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**

**Главный редактор:**  
**Тухтасинов Илхом**  
д.п.н., профессор (Узбекистан)

**Заместитель главного редактора:**

**Editor in Chief:**  
**Tuhtasinov Ilhom**  
DSc. Professor (Uzbekistan)

**Deputy Chief Editor**

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

**Назаров Бахтиёр**  
академик. (Ўзбекистон)

**Якуб Умарўғли**  
ф.ф.д., профессор (Туркия)

**Алмаз Улви Биннатова**  
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

**Бокиева Гуландом**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Миннуллин Ким**  
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

**Махмудов Низомиддин**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Керимов Исмаил**  
ф.ф.д., профессор (Россия)

**Жўраев Маматкул**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Куренов Рахиммамед**  
к.ф.н. (Туркменистон)

**Кристофер Жеймс Форт**  
Мичиган университети (АҚШ)

**Умархўжаев Мухтор**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Мирзаев Ибодулло**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Болтабоев Ҳамидулла**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Дўстмухаммедов Хуршид**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Лиходзиевский А.С.**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Сиддиқова Ирода**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Шиукашвили Тамар**  
ф.ф.д. (Грузия)

**Туробов Бекпулат**  
масбул котиб, PhD, доцент  
(Ўзбекистон)

## РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

**Назаров Бахтиёр**  
академик. (Узбекистан)

**Якуб Умар оғли**  
д.ф.н., профессор (Туркия)

**Алмаз Улви Биннатова**  
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

**Бакиева Гуландом**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Миннуллин Ким**  
д.ф.н., профессор (Татарстан)

**Махмудов Низомиддин**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Керимов Исмаил**  
д.ф.н., профессор (Россия)

**Джураев Маматкул**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Куренов Рахыммамед**  
к.ф.н. (Туркменистан)

**Кристофер Джеймс Форт**  
Университет Мичигана (США)

**Умархаджаев Мухтар**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Мирзаев Ибодулло**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Балтабоев Ҳамидулла**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Дустмухаммедов Хуршид**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Лиходзиевский А.С.**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Сиддикова Ирода**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Шиукашвили Тамар**  
д.ф.н. (Грузия)

**Туробов Бекпулат**  
отв. секретарь, PhD, доцент  
(Узбекистан)

## EDITORIAL BOARD

**Bakhtiyor Nazarov**  
academician. (Uzbekistan)

**Yakub Umarogli**  
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

**Almaz Ulvi Binnatova**  
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

**Bakieva Gulandom**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Minnulin Kim**  
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

**Mahmudov Nizomiddin**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Kerimov Ismail**  
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

**Juraev Mamatkul**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Kurenov Rakhimmamed**  
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

**Christopher James Fort**  
University of Michigan (USA)

**Umarkhodjaev Mukhtar**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Mirzaev Ibodulla**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Boltaboev Hamidulla**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Dustmuhammedov Khurshid**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Lixodzievsky A.S.**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Siddiqova Iroda**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Shiukashvili Tamar**  
Doc. of philol. scien. (Georgia)

**Turobov Bekpulat**  
PhD Ass. prof. Senior Secretary  
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

<b>1. Urazaliyeva Mavluda Yangiboyevna</b> O‘ZBEK TILI AUDIOKORPUSI UCHUN PRAATNING FUNKSIONAL IMKONIYATLARI.....	5
<b>2. Kuchkorov Khoshimjon Khasanzoda</b> SOME CONSIDERATIONS ON THE UZBEK TRANSLATION OF THE WORK OF THE ALCHEMIST (ON THE EXAMPLE OF THE TRANSLATION OF AKHMAD OTABOY).....	11
<b>3. Ergashev Mirsaid Baxtiyor o‘g‘li</b> SEMANTIC FEATURES OF THE CONCEPT OF “LOVE-MUHABBAT” IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.....	18
<b>4. Eshboltayev Bobur Jo‘rayevich</b> BOLALAR REKLAMA MATNLARINING PSIXOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI.....	23
<b>5. Qurbonova E‘zoza</b> HUQUQSHUNOSLIKKA DOIR TERMINLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA ULARDA POLIFUNKSIONALLIK MASALASI.....	27
<b>6. Abduxamidova Dilafruz Abduxabirovna</b> TILNING TAFAKKURGA TAFAKKURNING TILGA TA‘SIRI.....	33
<b>7. Usmonova Zarina Habibovna</b> THE UNIQUE ASPECTS OF TRANSLATION IN ENGLISH SCIENCE FICTION.....	38
<b>8. Valieva Noiba Abbasxonovna</b> TIL VA JAMIYAT O‘RTASIDAGI UZVIY BOG‘LIQLIK XX ASR DOLZARB MASALASI SIFATIDA.....	43
<b>9. Dilorom Ikramovna Hakimova</b> “NAFS” KONSEPTINING LINGVOPRAGMATIK TAVSIFI VA TASNIFI.....	49
<b>10. Xasanova Shaxzoda</b> FE‘L FRAZEOLOGIZMLAR TARJIMASI.....	54
<b>11. Ойбек Бектемирович Абдимўминов</b> БМТ ИСЛОҲОТЛАРИ: СИЁСИЙ ҚАРАШЛАР, НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР ВА АМАЛИЙ ТАШАББУСЛАР.....	60
<b>12. Хасанова Феруза Мирзабековна, Аҳмедов Нодирбек Алиевич</b> ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА С КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА.....	67
<b>13. Усманова Салиха Юлдашевна, Мирзаева Шахло Ризаевна</b> ДИФФЕРЕНЦИАЦИЯ СОСТАВА И СТРОЕНИЯ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО СЛОВА ПРИ ИЗУЧЕНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА СТУДЕНТАМИ НАЦИОНАЛЬНЫХ ГРУПП.....	74
<b>14. Saidvaliyev Farrukh Saidakramovich, Subkhanova Aziza Khabibulla kizi</b> ROLE OF ANTIDEPRESSANTS IN REDUCING THE FREQUENCY AND DURATION OF MIGRAIN HEADACHES.....	80
<b>15. Ишанкулова Нилуфар Ташкентовна</b> HEMIS ТИЛИ ФЕЪЛЛАРИНИНГ АКЦИОНАЛ ТАСНИФИ.....	85
<b>16. Jabborova Dilafruz Ismatullo kizi</b> USING DIGITAL TECHNOLOGIES TO ENHANCE FINANCE STUDENTS’ WRITING COMPETENCE.....	91
<b>17. Jo‘raqulova Mushtariy</b> O‘ZBEK TILI PARALLEL KORPUSINING LINGVISTIK TA‘MINOTI.....	94
<b>18. Maftuna Kamarova Umar qizi</b> KOREYS TILI O‘QITUVCHILARINING O‘QISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA FLIPPED LEARNING TEXNOLOGIYASINING O‘RNI.....	99

<b>19. Shoxida Ulugova Shoxruxovna</b> LISONIY OBRAZ YARATISHDA DISKURSNING KOGNITIV-SEMANTIK VAZIFASI.....	104
<b>20. Рашидова Камила Ахмаджонова</b> ЗАРОЖДЕНИЕ СОВРЕМЕННОЙ ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ЯПОНИИ.....	109
<b>21. Тошбекова Дилором Исмоиловна, Халимова Нодира Бахронкуловна</b> РУССКАЯ ФРАЗЕОЛОГИЯ И КУЛЬТУРНЫЙ КОНТЕКСТ: АНАЛИЗ УСТОЙЧИВЫХ ВЫРАЖЕНИЙ, ПОСЛОВИЦ И ПОГОВОРОК, ИХ ПРОИСХОЖДЕНИЕ, РАЗВИТИЕ И РОЛЬ В СОВРЕМЕННОЙ КОММУНИКАЦИИ.....	116
<b>22. Bakhronova Dilrabo Keldiyorovna, Umirova Dilnoza</b> PRAGMATIC FEATURES OF PHRASES IN IAN MCEWAN’S NOVELS.....	120
<b>23. Ikramova Kamola Shuhratovna</b> THE IMPORTANCE OF MYTHOLOGIES, ARCHETYPES, AND MYTHIC UNITS IN THE CREATION OF A FEMALE IMAGE IN NOVELS “PRIDE AND PREJUDICE” BY JANE AUSTEN AND “O’TGAN KUNLAR” BY ABDULLAH QODIRIY.....	124
<b>24. Buranova Madina Uktamovna, Ruziyeva Umida Abryukul kizi</b> SEMANTIC AND PRAGMATIC ANALYSIS OF ANTHROPOCENTRIC IDIOMS IN CONTEMPORARY ENGLISH LITERATURE.....	129
<b>25. Ergashova Baxora Sayfillo qizi</b> ITALYAN XALQ ERTAKLARINING TARIXIY TARAQQIYOTI.....	136
<b>26. Muhtarova Nigina</b> THE USE OF AUTHENTIC VIDEO MATERIALS TO IMPROVE LANGUAGE LEARNING THROUGH COMMUNICATIVE TEACHING.....	141
<b>27. Bayonkhanova Iroda Furkatovna</b> KOREYS TILINI O’RGANISHDA MAQOLLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI.....	151
<b>28. Ergashev Mirsaid Baxtiyor o’g’li</b> SEMANTIC FEATURES OF THE CONCEPT OF “LOVE-MUHABBAT” IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.....	157
<b>29. Рашидова Камила Ахмаджонова</b> ЗАРОЖДЕНИЕ СОВРЕМЕННОЙ ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ЯПОНИИ.....	162
<b>30. Ikromova Nigina Oybekovna</b> THE EFFECT OF COGNITIVE LOAD ON THE TRANSLATOR: THE ROLE OF PSYCHOLINGUISTIC PROCESSES IN TEXT TRANSLATION.....	169
<b>31. Эргашева Дилноза Тохировна</b> АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА.....	175
<b>32. Nasiba Azizova</b> THE CONCEPT OF LINGUISTIC PERSONALITY IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI.....	180




ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

**Shoxida Ulugova Shoxruxovna**

Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti, PhD,

e-mail: shohidaulugova@mail.ru

**LISONIY OBRAZ YARATISHDA DISKURSNING KOGNITIV-SEMANTIK VAZIFASI** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15078397>**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada diskurs va lisoniy obrazlar, ularning matnda namoyon bo'lishi va stilistik vositalar orqali qanday yaratilishi ko'rib chiqiladi. Lingvistik, pragmatik va ekstralingvistik omillar orqali fikrlash, tafakkur va ijodiy taassurotlarning qanday shakllanishi yoritiladi. Maqolada shuningdek, diskursning semantik va kognitiv tuzilishi, va undagi obrazlarning ijodiy xususiyatlari aniqlanadi. Said Ahmadning "Kelinlar qo'zg'oloni" dramasidan olingan misollar orqali turli stilistik va metafora vositalarining matnni qabul qilishga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilingan.

**Tayanch so'zlar:** diskurs, lisoniy obraz, stilistik vositalar, kognitiv faoliyat, pragmatik vaziyat, metafora, kategoriyalash, semantika, tafakkur.

**Шохида Улугова Шохруховна**

доцент Самаркандского государственного института иностранных языков, кандидат филологических наук, e-mail: shohidaulugova@mail.ru

**КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКАЯ ФУНКЦИЯ ДИСКУРСА В СОЗДАНИИ ЯЗЫКОВОГО ОБРАЗА****АННОТАЦИЯ**

В этой статье будут рассмотрены дискурсивные и языковые образы, их проявление в тексте и то, как они создаются стилистическими средствами. С помощью лингвистических, прагматических и экстралингвистических факторов освещается, как формируются мышление, образные представления и творческие впечатления. В статье также выявляется семантическая и когнитивная структура дискурса, а также креативные особенности используемых в нем образов. На примерах из драмы Саида Ахмада «Бунт невесты» было проанализировано, как различные стилистические и метафорические приемы влияют на восприятие текста.

**Ключевые слова:** дискурс, языковой образ, стилистические средства, когнитивная деятельность, прагматическая ситуация, метафора, категоризация, семантика, мышление.

**Shokhida Ulugova Shokhrukhovna**

Associate Professor of the Samarkand State Institute of Foreign Languages, Candidate of Philological Sciences, e-mail: shohidaulugova@mail.ru

**THE COGNITIVE-SEMANTIC FUNCTION OF DISCOURSE IN CREATING A LINGUISTIC IMAGE**

## ABSTRACT

This article will examine discursive and linguistic images, their manifestation in the text and how they are created by stylistic means. Linguistic, pragmatic, and extralinguistic factors are used to highlight how thinking, imaginative representations, and creative impressions are formed. The article also reveals the semantic and cognitive structure of the discourse, as well as the creative features of the images used in it. Using examples from Said Ahmad's novel "The Bride's "Rebellion", it was analyzed how various stylistic and metaphorical techniques affect the perception of the text.

**Keywords:** discourse, linguistic image, stylistic means, cognitive activity, pragmatic situation, metaphor, categorization, semantics, thinking.

Hozirgi vaqtda diskurs muammosi gumanitar tadqiqotlarda eng ommabop va dolzarb muammolardan biri sifatida qaralmoqda. Zamonaviy fanda diskurs tushunchasining yagona talqini mavjud emas. Biroq, an'anaga muvofiq diskurs – nutqning kognitiv va kommunikativ vazifalarining ajralmas mahsuli hisoblanadi. N.F. Alefirenko diskursni quyidagicha ta'riflaydi: "Diskurs – bu pragmatik, ijtimoiy-madaniy, psixologik va boshqa omillar bilan birlashtirilgan hodisalarga asoslangan nutqiy ifoda shaklidir" [Алефиренко, 2002: 99]. Shunday qilib, ushbu tushuncha matnning yaxlitligini ekstralingvistik omillar asosida hisobga olishga imkon beradi. Shu munosabat bilan matn va diskurs kabi yaqin toifalarni ajratish muhimdir. Sh.Safarov ular o'rtasidagi farqni ajratib, diskurs dinamik xususiyatga ega va ma'lum vaqt oralig'ida kechadigan hodisa bo'lsa, matn o'z navbatida statik xususiyatli hodisa, lisoniy faoliyat mahsuli sifatida tavsiflaydi [Safarov, 2023: 83].

N.F. Alefirenko diskursning o'ziga xos xususiyatlarini quyidagicha belgilaydi:

a) kommunikativ hodisa – bu lisoniy shakl, bilim va kommunikativ va pragmatik vaziyatning birlashuvidir;

b) semantik yaxlitlikni ta'minlab, diskurs lingvomadaniy hodisa sifatida namoyon bo'ladi;

v) nutqiy aktlar va matndan farqli o'laroq, uning an'anaviy talqinida (ketma-ket ifoda zanjiri) diskursni kognitiv shakllar yetakchi rol o'ynaydigan, lisoniy shaxsning ichki olamining turli jihatlariga e'tibor qaratadigan ijtimoiy faoliyat sifatida ko'rib chiqish lozim;

g) "hayotga singib ketgan nutq" yoki "voqea aspektidan olingan matn" sifatida o'ziga xos ma'no hosil qiluvchi va olamni yaratuvchi "qurilma" hisoblanib, madaniyatning ekzegetik "matni"ga aylangan holda lisoniy tafakkurda mujassamlanadigan ma'lumotni talqin qiladi va izohlaydi [Алефиренко, 2002: 101-102].

Diskurs ko'p o'lovchi tuzilishi tufayli belgi shakllantiruvchi asosga aylanadi, uning turli darajalarida kommunikativ va pragmatik vaziyatning barcha ishtirokchilaridan kelib chiqadigan ma'lumotlarni kognitiv qayta ishlash (lingvistik bo'lmagan haqiqat; kommunikantlarning niyatlari, munosabatlari va tushunchalari; lingvistik birliklarning semantikasi va boshqalar) amalga oshiriladi.

Diskurs ko'p o'lovchi tuzilishi tufayli belgilarni shakllantiradigan asosga aylanadi. Uning turli darajalarida kommunikativ va pragmatik vaziyatning barcha ishtirokchilaridan kelib chiqadigan ma'lumotlarni kognitiv qayta ishlash (nolisoniy voqelik; kommunikantlarning maqsadi, munosabatlari va tushunchalari; lisoniy birliklar semantikasi va boshqalar) amalga oshiriladi. Said Ahmadning 1951-yilda yozilgan "Kelinlar qo'zg'oloni" dramasi olingan parchani tahlilga tortamiz. Bu asar O'zbekistondagi ijtimoiy hayotni va kelinlarning oilaviy hayotdagi ijtimoiy rolini tasvirlaydi. Dramada bir oila a'zolarining munosabatlari, ayollar huquqi, jamiyatdagi o'zgarishlar va ularning taassurotlari ko'rsatiladi. Asarda **Nigora** va uning **qaynonasi** o'rtasidagi munosabatlar markaziy o'rinda turadi. Yetti kelinning qaynonasi Farmon bibi an'anaviy hayotni davom ettirish maqsadida, o'zining tarixi va tajribasidan kelib chiqib, barchaga o'z fikrini o'tkazmoqchi bo'ladi. Nigora – oiladagi qat'iy va xalqona an'analarga qarshi turgan yosh kelin. U turmush o'rtog'i To'xtaboyga shunday deydi:

Menga qarang, To'xta aka. Men sizga tegayotganimda oyingizning shunaqaliklarini bilib tekkanman. Bu **kampir seni yeb qo'yadi**, deyishdi, **myasorubkadan o'tqazvoradi**, deyishdi, **seni eshak qilib ustingga minib oladi**, deyishdi. **Seni ignaning teshigidan o'tqazvoradi**, deyishdi. **Burningdan ip o'tqazib, tuyaga o'xshatib yetaklab yuradi**, deyishdi [Kelinlar qo'zg'oloni: 8-bet].

Diskursda voqelikning zamonini, ijtimoiy muhitini anglash qiyin emas. Nigoraning rus tilidan o'zlashgan so'zni ishlatishi (go'sht qiymalagich o'rnida "myasorubka") uning shaharlik zamonaviy qiz ekanligini ko'rsatadi. "Menga qarang" deb buyruq ohangida eriga murojaat etishi uning qo'rqmas, jasur bo'lganligini namoyon etadi. Bir qator frazeologik birliklarni ketma-ket qo'llashi esa so'zga chechan, gapdon, mahmadona kelin obrazini yaratishga ko'maklashadi. Shuningdek, ushbu frazeologik iboralar uning qaynonasi obrazini tasvirlashga ko'maklashadi:

"Kampir seni yeb qo'yadi", "myasorubkadan o'tqazvoradi", "eshak qilib ustingga minib oladi", "ignaning teshigidan o'tqazvoradi", "burningdan ip o'tqazib, tuyaga o'xshatib yetaklab yuradi" – bu ifodalar haqiqiy ma'noda emas, balki qaynonaning qaysarligini, qattiqqo'lligini va gapini o'tkazishga, insonni bo'ysundirishga qodirligini ko'rsatishga qaratilgan. Diskursning bu jumla orqali yaratilayotgan lisoniy obrazi tilning psixologiyaga ta'sirini ko'rsatadi.

Nigora va qaynonasining ijtimoiy muhiti shundayki, ularning har biri jamiyatning o'zgarishlari va yangi qarashlariga munosabatda turli xil o'rinni egallaydi. Nigora yangi dunyoqarash asosida yashashni xohlaydi, shuningdek, o'z erkinligi va huquqlarini talabi bilan chiqadi. Qaynona esa an'anaviy, eskidagi g'oyalarga qat'iy amal qiladigan, yangi g'oyalarning ta'siriga qarshi bo'lgan ayol obrazi sifatida yaqindan tasvirlangan. Jumladan:

Qaysi go'rda tarbiya ko'rgansiz? Ota-onangiz axloq, odob degan narsalarni o'rgatmaganmi? (Yuzini teskari o'giradi.) (O'g'liga qarab) Hoy, bola, o'laman-qolaman, shuni olmasam o'zimni o'ldiraman, deb topgan xotining shumi? Yo'qot buningni? Agar qo'yvormas ekansan, otaginagni arvohini o'rtaga solaman... [Kelinlar qo'zg'oloni: 15].

Mazkur diskurs jamiyatning lingvomadaniy xususiyatlarini namoyon etadi. Ya'ni qaynona oila boshlig'i, u hokimiyat egasi. Uning aytgan gapiga bo'ysunish lozim. Nolisoniy harakat (yuzini teskari buradi) orqali uning fe'l-atvori gavdalangan.

Shubhasiz, lisoniy obraz obyektiv olamni nutqiy tafakkurda aks ettirishning o'ziga xos shaklidir. So'z lisoniy tizimning birligi bo'lib, nutqiy obrazning o'ziga xos qonunlariga bo'ysunadi. So'zning stilistik jihatdan noto'g'ri taqsimlanishi o'quvchi tafakkurida turli xil uyushmalarni keltirib chiqaradi, ular esa hikoya matnini qabul qilish doirasini kengaytirib, uning subyektiv obrazli ahamiyatini oshiradi.

Bizning tushunchamizga ko'ra, matndagi minimal nominativ semantik birlik sifatida so'z, agar ma'lum bir kontekstda diskursiv asosda individual obrazli ma'noga ega bo'lsa, obrazlilik xususiyati bilan xarakterlanadi. Obrazning paydo bo'lishi so'zning umumlisoniy ma'nosini saqlab, asl (nominativ) leksik ma'no bilan birga mavjud bo'lgan semantik o'zgarishlar, semantik siljishlar bilan birga faollashadi. Birlamchi va ikkilamchi ma'nolarning o'zaro ta'siri natijasida asarlarda lisoniy obraz yaratiladi.

Said Ahmadning "Kelinlar qo'zg'oloni" asarida "mamlakat" lisoniy obrazi diskursiv omillar ta'siri ostida qo'shimcha qatlamlarga ega: "**Mamlakatimizning** territoriyasi xuddi shu yerga kelganda tugaydi. U yog'i boshqa **mamlakat**. Mana shu parda chegara. U yog'i xotin poshshoning yurti. Bu poshsholikning o'z qonuni, o'z urf-odatlar bor. Ajablanmang. To'g'ri gapni aytyapman. Poshsho xotinning yetti o'g'li, yetti kelini, qirq bir nevarasi bor" [Kelinlar qo'zg'oloni: 3].

Mazkur asarda "mamlakat" so'zi bir tomondan, uning an'anaviy siyosiy va geografik mazmuni saqlanib, ikkinchidan, u oilaviy, ijtimoiy boshqaruv tizimini anglatadi. "Mamlakat" so'zi bu yerda aniq ijtimoiy va qonuniy obrazga aylanib, o'zining asl ma'nosidan ko'proq insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar, an'analar va tartiblarning ramziga aylanadi. "Poshsho" so'zi "mamlakat" atamasi bilan bog'lanib, boshqaruv, qonunlar va tartibni ifodalaydi. Mazkur kontekstda "mamlakat" – bu nafaqat geografik hudud, balki qaynona tomonidan boshqariladigan jamiyat, qonun va tartib mavjud bo'lgan, "qo'shni" hudud bilan chegaralangan joy. Ushbu lisoniy obraz individual, shaxsiy ma'noni ifoda etadi va ijodiy qabul qilishga ta'sir qiladi.

Hikoya matnlarida obrazni yaratuvchi vositalarga nutq shakllari kiradi. Stilistik vositalarga nutqiy ifodani yaratishga ko'maklashadigan lisoniy vositalar kiradi. Mazkur dramada "uy" lisoniy obrazini yaratishda metafora stilistik usuli faollashgan:

Farmon bibi. Bu **uy** ham bir **hukumat**. Ha, bir **mamlakat**. O'z **poshshosi**, o'z **qonuni bor** [Kelinlar qo'zg'oloni: 15].

Bu metaforada uy “hukumat” va “mamlakat” kabi o‘rganiladi. Uyning o‘z poshshosi va qonuni borligi bilan hukumat va mamlakatning barqaror tizimiga o‘xshatilmoqda. Ya’ni, uyda ham ma’lum bir qoidalar, tartib va hokimiyat mavjudligiga ishora qilinadi. Metafora orqali uyning ichki munosabatlari va tizimini umumiy jamiyatning tartibga solingan qoidalari va idora etilishini ifodalash maqsad qilingan. Ushbu diskursiv omillar lisoniy obrazni aks ettirishda asosiy rol o‘ynaydi. Metafora yorqin vizual obrazni yaratadi.

Ma’lumki, inson konseptual tizim, ya’ni uning psixologik bilimni o‘zlashtirish davomida shaxsiy ma’no-mazmuni hosil qilishga yo‘naltirilgan faoliyatini shakllantiruvchi tushunchalar tizimida mavjud bo‘ladi [Нелюбин, 2003: 91]. Demak, o‘zlashtirilayotgan bilimni konseptuallashtirish tamoyili metaforaning gnesologik vazifasi faollashuvida muhim o‘rinni egallaydi. Shunga binoan, metafora stilistik trop bo‘lib qolaverishi bilan birgalikda, uning inson tafakkuri jarayonida aniqlanadigan voqelik modeli maqomi ham beriladi [Нелюбин, 2006: 108].

V.G. Gakning fikriga ko‘ra, qayta nomlash, shuningdek ma’nolarning o‘zgarishi tafakkurning rasmiy va mantiqiy qonuniyatlariga, tushunchalar o‘rtasidagi munosabatlarga asoslanadi [Гак, 1998: 469]. Semantik o‘zgarishlar bilimlarni konseptuallashtirish va kategorizatsiyalash jarayonida yuzaga keladigan turli xil kognitiv (aqliy) jarayonlarning natijasidir. Olimning fikricha, turli semantik o‘zgarishlar tushunchalar va ma’nolarning tengligi, ziddiyatli buysundirish va tushunchalarning kesishuvi munosabatlarga asoslanadi. Kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan, bu konseptual tizimda allaqachon mavjud bo‘lgan va yangi lisoniy birlikning shakllanishi jarayonida shakllangan konseptual tuzilmalar o‘rtasidagi munosabatlar sifatida talqin qilinishi mumkin.

Konseptuallashtirish – bu “inson kognitiv faoliyatining eng muhim jarayonlaridan biri bo‘lib, unga keladigan ma’lumotni tushunish va inson miyasida (psixikasida) tushunchalar, konseptual tuzilmalar va butun konseptual tizimni shakllantirishga olib keladi” [Кубрякова, 1996: 93]. Lisoniy konseptuallashtirish konseptual tafakkurning operasion va funksional mexanizmlarini faollashtirish orqali amalga oshiriladi.

Kategorizatsiyalash (toifalarga ajratish), N.N. Boldirevning so‘zlariga ko‘ra, kognitiv tilshunoslikning asosiy tushunchalaridan biri bo‘lib, u kognitiv jarayon va bilimlarni shakllantirishning umumiy tamoyillarini, atrofimizdagi olamni qanday bilishimizni va olingan bilimlarni qanday shaklda va qanday saqlashimizni til orqali ochib beradi [Болдырев, 2002: 66].

Toifalarga ajratish, J. Lakoffga ko‘ra, bu o‘ta jiddiy munosabatni talab qiladi, chunki bu bizning fikrlash, idrok etish, amaliy faoliyatimiz va nutqimizning normal ishlashi uchun asosdir [Лаккофф, 2004: 45]. Hozirgi vaqtda kategorizatsiyalashning uchta ma’lum usuli mavjud:

Birinchi usul Platon va Aristotelning qarashlarida mujassamlangan an’anaviy hisoblanadi. Kategorizatsiya “muayyan predmetning xususiyatlarini qat’iy deterministik kategorik xususiyatlar panjarasi orqali filtrlash” orqali sodir bo‘ladi [Алефиренко, 2002: 203].

Ikkinchi usul L. Vitgenshteyn nomi bilan bog‘liq. Kategorial belgilar “kommunikativ va pragmatik jihatdan aniqlanadi, ya’ni ular o‘zlari paydo bo‘lgan maqsadlar, motivatsiya va vaziyatlar bilan bog‘liqdir” [Алефиренко, 2002: 203].

Uchinchi usul, N.N. Boldirevning fikricha, birinchi ikki usul orasida ma’lum bir kompromissni tashkil etadi. Uchinchi usul prototiplar nazariyasiga asoslanadi va kategoriyalarni shakllantirishda prototipik yondashuv bilan farqlanadi [Болдырев, 2002: 45]. Bu yondashuvning paydo bo‘lishi odatda E. Roshning ishlari bilan bog‘lanadi. Amerika psixologi turli eksperimentlar orqali, nolisoniy bilimlar til bilan emas, balki tafakkur bilan bog‘liq ekanini, shuning uchun ular kognitiv xususiyatga ega ekanini va kategoriyalashning tafakkur jarayonlarida muhim rol o‘ynashini isbotlagan. Bu kabi kategoriyalash va prototip to‘g‘risidagi tushuncha, nominatsiyaning ko‘ndalang mexanizmlarini anglashga imkon beradi.

Shunday qilib, hikoya va romanlar matnlaridagi diskursiv obrazlar lingvokreativ tafakkurning o‘ziga xos xususiyatlari va inson idroki bilan belgilanadigan ekstralingvistik omillar natijasida paydo bo‘ladi. Asarlarda badiiy voqelikning hissiy aks etishi turli xil stilistik vositalar yordamida amalga oshiriladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

---

1. Said Ahmad. Kelinlar qo'zg'aloni. [https://n.ziyouz.com/uzbek\\_dramaturgiyasi](https://n.ziyouz.com/uzbek_dramaturgiyasi).
2. Safarov Sh.S. Tilshunoslik terminlari lug'ati. – Toshkent: “Lesson press” nashriyoti, 2023. – 356 b.
3. Ulugova Sh.Sh. Badiiy asar matnida metaforalar faollashuviga asar qahramonlari dunyoqarashining ta'siri // So'z san'ati xalqaro jurnali. – 2021. – T. 4. – №. 2.
4. Алефиренко Н.Ф. Поэтическая энергия слова. Синергетика языка, сознания и культуры. – М.: Academia, 2002. – 394 с.
5. Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика. – Тамбов: Изд-во ТГУ им. Г. Р. Державина, 2002. – 123 с.
6. Гак В.Г. Языковые преобразования. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1998. – 768 с.
7. Краткий словарь когнитивных терминов. Е.С. Кубрякова, В.З. Демьянков, Ю. Г. Панкрац, Л. Г. Лузина. – Москва: Моск. гос. ун-та, 1996. – 245 с.
8. Лакофф Дж. Метафоры, которыми мы живём. – М.: Эдиториал УРСС, 2004. – 256 с.
9. Нелюбин Л.Л. Толковый переводческий словарь. – М.: Флинта, 2003. – 318с.
10. Нелюбин Л.Л., Хухуни Г.Г. Наука о переводе. – М.: Флинта, 2006. – 413с.

# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 5 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 5

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 5

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000